

XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

*Toshent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliyaviy hisob va hisoboti” kafedrasini
tadqiqotchisi:*

Xayitboyeva Laylo Oybekovna

Annotatsiya: Ushbu tezisda korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Strategik qarorlar qabul qilishda boshqaruv hisobi orqali aniq va asosli ma’lumotlarga ega bo‘lishning o‘rni ochib berilgan. Mavzu doirasida xorijiy tajribalarning tahlili keltirilib, ularni milliy amaliyotga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: strategik boshqaruv hisobi, xarajatlar tahlili, menejment hisobi, samaradorlik, uzoq muddatli rejalashtirish.

KIRISH

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyati ko‘p jihatdan ularning xarajatlarni samarali boshqarish qobiliyatiga bog‘liq. Ayniqsa, strategik darajadagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, xarajatlar haqidagi tizimli va tahliliy axborotning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlar qisqa muddatli moliyaviy ko‘rsatkichlarga urg‘u bergen holda, uzoq muddatli strategik tahlil va prognozlashga yetarli e’tibor qaratmayapti.

Ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi – xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish zaruratini asoslab berish va milliy amaliyotga mos keluvchi amaliy-uslubiy takliflarni ilgari surishdan iborat.

Tadqiqot metodikasi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

- Tahliliy yondashuv – ilmiy adabiyotlar, amaliy hisobotlar va statistik ma’lumotlar asosida mavjud muammolar o‘rganildi;
- Taqqoslama tahlil – O‘zbekiston tajribasi xorijiy davlatlar (xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya) amaliyoti bilan solishtirildi;
- Induktiv va deduktiv usullar – alohida holatlardan umumiylar xulosalar chiqarish va aksincha, umumiylar yondashuvlarni konkret misollarda qo‘llash asosida tahlil qilindi;
- SWOT-tahlil – strategik boshqaruv hisobi tizimining kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, imkoniyat va xavflar baholandi.

Tadqiqot ob’ekti sifatida mamlakatdagi yetakchi sanoat korxonalari (masalan, “UzAuto Motors”, “O‘zbekneftgaz”) moliyaviy boshqaruv amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda strategik darajadagi boshqaruv hisobi yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, mavjud tizim asosan qisqa muddatli xarajatlar tahliliga yo‘naltirilgan. Quyidagi muammoli jihatlar aniqlangan:

- Xarajatlar hisobi ko‘proq operatsion faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, uzoq muddatli strategik xarajatlar (investitsiyalar, R&D, innovatsiyalar) alohida guruhda ko‘rib chiqilmaydi;
- Resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda zamonaviy yondashuvlar (masalan, KPI yoki BSC) yetarlicha tatbiq etilmagan;
- Boshqaruv hisobining raqamli infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan. Shu bilan birga, xorijiy tajriba tahlili quyidagi usullarning foydaliligini ko‘rsatdi:
- Faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC) – mahsulot yoki xizmat bo‘yicha aniq xarajat tuzilmasini shakllantirish imkonini beradi;
- Maqsadli xarajatlar usuli (Target Costing) – rejalashtirilgan foya ko‘rsatkichlari asosida xarajatlarni boshqarishga xizmat qiladi;
- Muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (BSC) – korxona faoliyatini strategik ko‘rsatkichlar asosida baholash va boshqarishni ta’minlaydi.

Munozara.

Strategik boshqaruv hisobi tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi korxonalarning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Buning asosiy sabablari qatoriga malakali mutaxassislarning yetishmasligi, boshqaruv hisobining raqamli tizimlar bilan integratsiyalashmaganligi va hisobot axborotining yopiq shaklda yuritilishi kiradi. Muammoni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Xarajatlarning strategik tasnifini ishlab chiqish: Uzoq muddatli xarajatlar toifasini aniqlash va ularni alohida nazoratga olish;
2. Ilg‘or metodlarni joriy etish: ABC, Target Costing va BSC uslublarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali qaror qabul qilish sifatini oshirish;
3. Axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish: ERP va boshqa raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ma’lumotlar uzatish va tahlil qilish jarayonini soddashtirish;
4. Kadrlar salohiyatini oshirish: Strategik boshqaruv hisobiga ixtisoslashgan kurslar va treninglar tashkil etish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi zamonaviy korxonalarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy vositalardan biridir. Bu tizimni takomillashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish, aniq va asosli qarorlar qabul qilish, shuningdek, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. O‘zbekiston korxonalarida ushbu tizimni to‘laqonli joriy etish ularning xalqaro bozorlarda barqaror o‘rin egallashiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kaplan R., Norton D. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business Review Press.
2. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. (2015). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. Pearson Education.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 июлдаги ПҚ-325-сон қарори.
4. Xodjayev N. (2021). “Buxgalteriya hisobida zamonaviy yondashuvlar”. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. Moliya vazirligi axborot byulleteni, 2023-yil, №4.